“O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” AJning
2024-yil 25-dekabrdagi 03-446-sonli xatiga ilova

2024-yil davomida “O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” aksiyadorlik jamiyatida (O‘zRVB) monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyatiga oid amalga oshirilgan ishlar yuzasidan HISOBOT

T/r	Belgilangan vazifalar	Amalga oshirilgan ishlar
1	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 2024-yilga mo‘ljallangan "yo‘l xaritasi" ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi.	O‘zRVBning 2023-yil 29-sentabrdagi 154-sonli buyrug‘i bilan O‘zRVBning 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan **yo‘l xarita** tasdiqlangan (*yo‘l xaritaning elektron (PDF) formati ilova qilinmoqda*).
2	Tashkilot faoliyatiga oid bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ichki monopoliyaga qarshi komplaens bo‘linmasi (mas'ul xodimi) bilan majburiy tartibda kelishish tartibi joriy etilganligi.	O‘zRVBning 2024-yil 29-oktabrdagi 134-sonli buyrug‘i bilan O‘zRVB faoliyatiga oid bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida O‘zRVBda korrupsiya va monopoliyaga qarshi komplaens tizimi bo‘yicha **mas’ul shaxs bilan majburiy tartibda kelishish tartibi** joriy etilgan. (*buyruqning elektron (PDF) formati ilova qilinmoqda*).
3	Raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlar haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa vositalari tashkil etilganligi.	O‘zRVBning rasmiy veb-saytida raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlar haqida xabar berishga mo‘ljallangan quyidagi aloqa kanallari tashkil etilgan (https://uzrvb.uz/uz/korporativ-faoliyat/monopoliyaga-arshi-komplaens/): электрон почта орқали (info@uzrvb.uz); телефон рақам орқали (+998 55 501-33-02), ichki raqam:114; телеграм бот (@UZRVB_BOT); расмий веб-сайти (www.uzrvb.uz); Шунингдек, O‘zRVBning rasmiy veb-saytida “**Raqobat cheklanganligi haqida xabar berish**!” nomli sahifa yaratildi, sahifaga quyidagi havola orqali kirish mumkin: https://uzrvb.uz/uz/interaktiv-hizmatlar/raobat-cheklanganligi-aida-habar-berish/?action=form (*sahifaning skrinshoti ilova qilinmoqda*).

4	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari oldi olinganligi.	**Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari mavjud emas.**
5	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishi holatlari aniqlanganligi va ularni tartibga solish bo‘yicha choralar ko‘rilganligi.	**Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishi holatlari aniqlanmadi.**
6	Tashkilot faoliyatida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi mumkin bo‘lgan sohalarni xavflar tasnifi asosida darajalarga bo‘linganligi.	O‘zRVBda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish darajasi bo‘yicha **xavflar tasnifi** shakllantirildi. (*xavflar tasnifining elektron (PDF) formati ilova qilinmoqda*).
7	Tashkilot faoliyatiga oid ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlarning loyihalari o‘rganilganligi, bunda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan normalar (holatlar) aniqlangan taqdirda, uni mazkur qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilganligi.	O‘zRVB faoliyatiga oid ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki me’yoriy hujjatlarlarning loyihalari doimiy o‘rganib borildi, o‘rganish natijasida **raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan normalar (holatlar) aniqlanmadi.**
8	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari o‘zgarishlaridan kelib chiqib, amaldagi ichki idoraviy hujjatlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar va ularning amaliyotga tatbiq etilganligi.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentabrdagi PQ-291-son “Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorga muvofiq 2025-yil 1-yanvardan boshlab davlat va korporativ qimmatli qog‘ozlarning yagona hisobini yuritish vazifasi «Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi» AJga yuklatilganligi sababli 2024-yilning 1-iyulidan boshlab davlat qimmatli qog‘ozlarini hisobga qo‘yish, ularning hisobini yuritish va saqlash funksiyalari «Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi» AJga o‘tkazildi. Shunga ko‘ra, 2024-yil 20-sentabr kuni 03-320-sonli xat bilan O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasiga O‘zRVBning davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha depozitariy operatsiyalarni tashkil etish va o‘tkazish xizmatini tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning davlat reestridan chiqarish masalasi yuzasidan murojaat qilindi. O‘zRVB ichki idoraviy hujjatlar bilan quyidagi havola orqali tanishish mumkin: https://uzrvb.uz/uz/normativ-baza/zrvb-ichki-uzhzhatlari/

9	Tashkilot xodimlarining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari oshirilganligi.	O‘zRVB xodimlarining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari oshirish maqsadida 2024-yil 11-sentabr kuni “Davlat organlari va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etishning ahamiyati” mavzusida o‘quv-seminari o‘tkazildi (*majlis bayonining elektron (PDF) formati ilova qilinadi*). Shuningdek, 2024 yil 19 dekabrda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi “Raqobat to‘g‘risida”gi qonuniga kiritilgan o‘zgartirishlar mavzusida davra suhbati o‘tkazildi (*majlis bayonining elektron (PDF) formati ilova qilinadi*). O‘tkazilgan tadbirlar bo‘yicha quyidagi havola orqali ham tanishish mumkin: https://uzrvb.uz/uz/korporativ-faoliyat/monopoliyaga-arshi-komplaens/tadbirlar/
10	Tashkilot xodimlarining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida muntazam ravishda test sinovlari o‘tkazilganligi.	O‘zRVB xodimlarining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida 2024-yil 23-avgust va 19-noyabr kunlari Google Forms orqali test sinovlari o‘tkazildi (*test savollarining elektron (PDF) formati ilova qilinadi*). Test savollari bilan quyidagi havola orqali ham tanishish mumkin: 2024-yil 23-avgust: https://forms.gle/JJPYiLzZ9oSuMQWP7 2024-yil 19-noyabr: https://forms.gle/v8sfqPzXSRKcY91u8
11	Tashkilot rahbari, ularning o‘rinbosarlari va mas'ul xodimlari tomonidan monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar.	Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi bo‘yicha mas’ul shaxsning monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan tayyorlagan maqolalari va ma'lumotlari hamda sohaga doir o‘tkazilgan tadbirlar O‘zRVB rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan. (*maqolalarning elektron (PDF) formati ilova qilinadi*). Chop etilgan maqolalar va ma'lumotlar hamda sohaga doir o‘tkazilgan tadbirlar bo‘yicha quyidagi havola orqali tanishish mumkin: https://uzrvb.uz/uz/korporativ-faoliyat/monopoliyaga-arshi-komplaens/tadbirlar/

Izoh: Hisobot taqdim etilishida har bir vazifa bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar aniq raqamlar va tasdiqlangan isbotlovchi hujjatlar bilan taqdim etilishi lozim.